



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 11-iyul

VI-97-127-11-162-K/24

Uchko‘prik tumani

Uchko‘prik tumanining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoelektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdan 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shti hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 10 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagisi 03/08-2963-sonli xati;

Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 11-iyundagi 100-son xati;

tuman ishchi komissiyasining 11-iyundagi 144/05-18-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (*Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari*) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Tuman ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (*keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi*) Uchko‘prik tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Bag‘dod, Rishton, O‘zbekiston va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Komissiya bayoni bilan Uchko‘prik tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Bag‘dod, Rishton, O‘zbekiston va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha **1-2-ilovalarga** muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (*ma’muriy-hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda*) Uchko‘prik tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Bag‘dod, Rishton, O‘zbekiston va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Ushbu Kengash qarorining tasdig‘i xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

7. Mazkur Kengash qarorining bajarilishini nazorat qilish vazifasi **xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiysi (Turanov)** va **xalq deputatlari tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Abdullahov)** a’zolari zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiritiladi.

Sessiya raisi



M. M. Dexqonov

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 11-iyuldagি
VI-97-127-11-162-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Uchko‘prik tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Bag‘dod, Rishton, O‘zbekiston
va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining**

T A V S I F I

Nº	Tuman nomi	CHegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (hektar)
1.	Uchko‘prik tumani	124285,29	27174,56

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani
Kengashining
2024-yil 11-iyuldag'i
VI-97-127-11-162-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Uchko‘prik tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Bag‘dod, Rishton, O‘zbekiston
va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining

K A R T O R A F I K C H I Z M A S I

